

This is not registered version of Total Dec Converter  
Qobulda bog'lovni ekan qadam bo'ldi. Uning barcha to'rida shoirning qabri saqlangan. Oyoq tomonda-gi qari tutni o'sha

vaqtlarda o'tqazilgan, deb tushuntirishadi. Qadamjoni ikkinchi bor ziyorat qilganim-da yonimda menga bog'lab qo'yilgan soqchidan bo'lak odam yo'q edi. Uning oti Ma'rif, kambag'algina askar bola.

Men bu safar tutga uzoq tikilib qoldim. U qarib, yo'g'on tanasi tamoman chirib, o'q ildizi tuproqqa aylangan. Lekin bir yonidagi jindek g'udur po'stloqdan ozgina shira kelib bir-ikki shohida yashil barglar hali ham shivirlashib turibdi. Nahotki o'sha asrlardan beri tirik? Uni o'tqazganlar, balki buyuk bobomizni ko'rgandir. Po'stlog'ida kimlarning kaft izlari bor ekan? Shabadada qaltirab yiltillab turgan bu siyrak barglar mo'jizaday tuyuladi, men ularni ushlagim keldiyu, qo'l tekkizolmadim. Tiz cho'kib, tutning po'stlog'i bor tomonga kaftimni uzatsam, qo'lim titrab, badanimga o't yugurganday bo'ldi.

Ajabo... dedim asta silab ko'rib.

Bo'lmaydi,- dedi shu payt tepamda turgan Ma'rif.

O'rnimdan turdim. Ushlash mumkin emas ekan, deb o'ylab, hijolat tortdim.

Bog'dan chiqqandan keyin surishtirsam Ma'rif "bo'lmaydi"ni boshqa ma'noda aytgan ekan. Uning otasi bozorda o'tinfulushlarga tarozibonlik qilgan ekan. Xonadonda o'tinning sifatini yaxshi bilishadi.

- Endi u yonsa ham taft bermaydi. Chirindi, - dedi askar.